



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 31 - yanvar

VI-86-3-7-104-K/24

Toyloq tuman hokimligi

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tuman prokurori A.Saypiddinovning 2023-yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida berilgan vakolat doirasida tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar haqida tuman prokurorining hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining sakson oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tuman prokurori A.Saypiddinovning 2023-yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman prokurori A.Saypiddinovga:

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Davlat dasturlari ijrosini ta’minalash;

fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta’minalashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;

mansabdor shaxslarning o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishdagi

mas'uliyatini oshirish choralarini belgilash va amalga oshirish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, kichik va o'rta biznesni keng qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatiga to'siq bo'layotgan omillarni bartaraf etish choralarini belgilash va amalga oshirish;

sog'liqni saqlashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarining o'z vaqtida va to'liq bajaralishini nazorat qilish;

tuman hududida jinoyatchilikka, ayniqla, korrupsiya va poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarga va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlariga qarshi kurashish borasida keng jamoatchilik bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazib borish:

aholi o'rtasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining huquqiy targ'ibotini yanada kengaytirish bunda, asosiy e'tiborni o'zini-o'zi boshqarish organlariga qaratish topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova) hamda "Qo'shchinor" gazetasi tahririysi (M.Yuldasheva) tumanda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Akramova)ga, ijrosini ta'minlash tuman prokurori (A.Saypiddinov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengashi Raisi



B.Babonazarov